



TURIZM TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH HOLATINING TAHLILI

Abdullayev Zafarbek Safibullayevich

Dsc. mustaqil tadqiqotchi, PhD Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

Toshkent, O'zbekiston

Zafarbek.abdullayev@gmail.com

ORCID: 0000-8965-8896-1404

ANALYSIS OF TAXATION OF TOURIST ORGANIZATIONS

Abdullayev Zafarbek Safibullaevich

Dsc Independent researcher, PhD Tashkent State University of Economics,

Tashkent, Uzbekistan

Zafarbek.abdullayev@gmail.com

ORCID: 0000-8965-8896-1404

JEL Classification: M4, M42

Annotatsiya: Maqola O'zbekistonda turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliqqa tortish holatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ish turizm sanoatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan soliq siyosatining asosiy jihatlarini ko'rib chiqadi, shuningdek soliq organlari va tadbirkorlar oldida turgan asosiy muammolarni ochib beradi.

Turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qo'llaniladigan joriy soliq elementlari, jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va mahalliy to'lovlar tahlil qilinadi. Boshqa mamlakatlarning muvaffaqiyatli amaliyotlari misollari, shuningdek, O'zbekistonda soliq qonunchiligini yaxshilash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Maqolada, shuningdek, turizm sektorining o'sishiga yordam beradigan va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan muvozanatli soliq siyosatining ahamiyati ta'kidlangan. Xulosa qilib, O'zbekistonning sayyohlik yo'nalishi sifatida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida turizm sohasida soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan. Xalqaro turizm va uning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyatining tahlili makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini samarali hal etishda turizm tarmog'ining bir qator ustunlik jihatlariga ega ekanligi

ko'rsatilgan. Zamonaviy sharoitda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini optimallashtirish hamda pasaytirishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilayotganiga qaramay to'plangan soliq tushumlari turizmga to'liq qayta investitsiya qilinmasligi, va kelajakda tizimda soliq turlarining kengayib borishi, shu jumladan, hududlarning soha bo'yicha soliq salohiyatini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Turizm sohasi subyektlarining soliq yuki kamayish doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, ayni sharoitda iqtisodiyotda turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliqqa tortishning zamonaviy tizimi va mexanizmlarini rivojlantirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Ushbu holat tadqiqot ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar, ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Abstract: The article is devoted to the analysis of the state of taxation of economic entities in the field of tourism in Uzbekistan. The work considers the main aspects of tax policy that affect the development of the tourism industry, and also reveals the main problems and

challenges facing tax authorities and entrepreneurs.

Current tax elements applied to travel companies are analyzed, including Value-Added Tax, Excise Tax, and local fees. Examples of successful practices from other countries are being considered, as well as opportunities to improve tax legislation in Uzbekistan.

The article also highlights the importance of a balanced tax policy that promotes the growth of the tourism sector and ensures the sustainable development of the country's economy. In conclusion, in order to increase the competitiveness of Uzbekistan as a tourist destination, recommendations for improving taxation in the field of tourism are formulated. Analysis of international tourism and its importance in the world economy shows that the tourism network has a number of dominant aspects in ensuring macroeconomic stability, effectively addressing socio-economic development issues. Despite the fact that scientific and practical research is being carried out on improving the taxation system and optimizing the tax burden on taxpayers in modern conditions, the collected tax revenues will not be fully reinvested in tourism, and in the future the system will focus on the expansion of tax types, including the development of tax potential of regions by industry. Despite the scientific research work carried out within the framework of the reduction of the tax burden of the subjects of the tourism industry and the scientific and theoretical research carried out, in the same conditions, the issues of development of the modern system and mechanisms of taxation of subjects of tourist activity in the economy have not been fully studied in a comprehensive and systematic way. This situation determines the level of relevance of the proposals and recommendations developed in the research work on the research and practical problems, their elimination.

Kalitli so'zlar: turizm sohasi, turizm subyektlari, soliq yuki.

Key words: tourism industry, tourism entities, tax burden.

Kirish. Turizm O'zbekiston iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ish o'rinlari yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va infratuzilmani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Globallashuv va xalqaro turizm bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga soliq solish ushbu sohaning barqarorligi va o'sishiga ta'sir qiluvchi davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasiga aylanmoqda.

O'zbekistonda mavjud soliq tizimi turizm faoliyatini rag'batlantirish, soliq tushumlarini ta'minlash va biznes uchun qulay muhit yaratish zarurati bilan bog'liq bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Turizm iqtisodiyoti faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq tushunmaslik, shuningdek soliq qonunchiligining bozor haqiqatlariga etarlicha moslashmasligi sektorning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekistonda turizm sohasida xo'jalik yurituvchi subyektlarga soliq solishning joriy holatini tahlil qilishdan iborat. Biz turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qo'llaniladigan asosiy soliq elementlarini ko'rib chiqamiz va ularni yaxshilash uchun qiyinchiliklar va imkoniyatlarni ochib beramiz. Tadqiqot boshqa mamlakatlar soliq siyosatining qiyosiy tahliliga asoslanadi, bu bizga eng yaxshi amaliyotlarni ajratib ko'rsatish va ushbu sohada soliq solish tartibini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida biz soliqqa tortishning turizm sohasini rivojlantirishga ta'sirini tahlil qilamiz, uning tadbirkorlar uchun oqibatlarini o'rganamiz va O'zbekistonning sayyohlik jozibadorligini oshirishga yordam beradigan soliq

jarayonlarini optimallashtirishning potensial yo'llarini aniqlaymiz.

Jahonda turizm bozoridagi kuchli raqobatda milliy turizm salohiyatini oshirish, ayniqsa, o'tgan oxirgi o'n yillikda dunyoda, shu o'rinda mamlakatimizda bo'lib o'tgan moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy xavflar tufayli yuzaga kelgan noqulay iqtisodiy vaziyatlardan chiqish va turizm sohasini tiklash hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashda soliqqa tortish tizimi instrumentlaridan samarali foydalanish, xususan, sohadagi soliq imtiyozlarini maqsadli berilishini, ularning samaradorligi va soliq xarajatlarining natijadorligini baholash asosida mamlakat soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

2022 - 2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida turizm industriyasini jadal rivojlantirish, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga etkazish, 2026 yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga etkazish, iqtisodiyotda sohaning roli va ulushini oshirish, turizm infratuzilmasini kengaytirish, shuningdek, soliq yuklamasini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish vazifalari kun tartibiga qo'yildi. Shuningdek, O'zbekistonda "...soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish" hamda "iqtisodiyotda soliq yuklamasini kamaytirish, xususan, soliq to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida soliq yuklamasi darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish" kabi ustuvor vazifalar belgilab olingan. Zamonaviy sharoitda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va

soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yuklamasini optimallashtirish hamda pasaytirishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilayotganiga qaramay to'plangan soliq tushumlari turizmga to'liq qayta investitsiya qilinmasligi va kelajakda tizimda soliq turlarining kengayib borishi, shu jumladan, hududlarning soha bo'yicha soliq salohiyatini rivojlantirish o'z yechimini topmagan [3,4].

Material va metod.

Turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni hamda turizm industriyasini rivojlantirishda soliqqa tortishning optimal usulini topish, xususan, sohani rivojlantirish uchun zamonaviy soliq imtiyozlari va preferensiyalarini takomillashtirishning nazariy asoslari ilmiy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlardan J.Ritchie, G.Crouch, D.Goldberg, A.Easson, E.Toder, B.Wasow, M.Ettlinger, S.James, M.Kubichkova, W.Gentry, R.Hubbard, J.Freebairn, D.Stoilova, B.Nerre, T.Kanina, M.Morozov, I.Balabanov, M.Birjakov, S.Barulin, I.Mayburov, T.Malinina, V.Panskov, I.Aleksandrov, I.Nayburova, N.Milayakov, D.Chernika, O.Beketova, T.YUtkina, A.Mishachkovalarning tadqiqotlarida uchraydi[5,6].

Bu boradagi mahalliy olimlardan I.Tuxliev, R.Hayitboev, B.Safarov, G.Tursunova, A.Saidov, B.Turaev, O.Hamidov, E.Golisheva va boshqalarning ishlarida milliy iqtisodiyotda turizm sohasi rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari atroflicha o'rganilgan bo'lsa [6], A.Vahobov, A.Jo'raev, S.Xudoyqulov, Q.Bazarov, M.Usmanova, F.SHamsutdinov, T.Malikov, F.Raxmatullaeva, A.Islamkulov, O.YUldashev, Z.Kurbanov, O.Abduraxmonov, N.Ashurova, B.Sanaqulova, N.Xaydarov, S.Voronin, E.Gadoev, I.Niyazmetov, SH.Toshmatov kabi olimlarning ilmiy ishlarida soliq tizimi

va soliqlarning turlari, milliy iqtisodiyotning ba'zi tarmoqlarini rivojlantirishda ularning ahamiyati va samaradorligining umumnazariy jihatlari bayon etilgan[7]. Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, ayni sharoitda iqtisodiyotda turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliqqa tortishning zamonaviy tizimi va mexanizmlarini rivojlantirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Ushbu holat turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishidagi ilmiy-amaliy muammolar, ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Ushbu maqolada abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, tizimli yondashuv, kuzatuv, iqtisodiy-statistik, ekonometrik usullardan va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Natijalar.

Turistik joylashtirish xizmatini ko'rsatuvchi turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliqqa tortish xususiyatlari, boshqa faoliyat turidagi turizm sohasi subyektlarini soliqqa tortish mexanizmi tahlili va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi soliq

preferentsiyalarning turizm sohasi subyektlari faoliyatiga va tarmoqning rivojlanishiga bo'lgan ta'sirining ilmiy tahlillar natijasi O'zbekiston turizm mahsulotlari boshqa mamlakatlardagiga nisbatan qimmat narxlarda taklif etilayotganligi sabablarini aniqlash uchun turizm mahsuloti tarkibiga kiruvchi turizm xizmatlarini qimmatlashuviga olib keluvchi omillarni atroflicha o'rganishni talab qiladi.

Joylashtirish vositalarining rivojlanishi va mazkur faoliyat bilan shug'ullanishga xususiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya va tadbirkorlik muhiti bilan bir qatorda soliqqa tortish tizimi ham muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan yangi Soliq kodeksiga asosan, turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mulkchilik shakli va daromad hajmiga bog'liq ravishda umumiy belgilangan soliqlar bilan bir qatorda foyda solig'i, daromad solig'i, aylanmadan soliq yoki qat'iy belgilangan stavka qo'llanilgan holda soliqqa tortiladi. Yuridik shaxs tashkil etib faoliyati yo'lga qo'yiladigan joylashtirish vositalari daromad hajmiga ko'ra ikki xil usulda soliqqa tortiladi. Agar soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi 1 mlrd. so'mdan oshmagan yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritayotgan joylashtirish vositalari 4 foiz stavkada aylanmadan olinadigan soliq va boshqa o'rnatilgan soliqlarni to'lovchisi hisoblanadi[9-11].

1-jadval. O'zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksiga asosan soliqqa tortish tizimini joylashtirish vositalariga bo'lgan ta'siri¹

Daromad hajmi / xodimlar soni	Soliq turlari					Sof soliq yuki
	Foyda solig'i / Aylanmadan olinadigan soliq (AOS)	Mol-mulk solig'i	Yer solig'i	QQS	Ijtimoiy soliq	
Yuridik shaxslar						
2022-yil						
<i>daromadi 1 mlrd. so'mdan oshmaganda</i>	4 % (AOS)	1,5 %	Yer maydoni xususiyatidan kelib chiqadigan stavkada	15 %	12 %	33 % <

¹ Jadval O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

daromadi 1 mlrd. so'mdan oshganda	15 %					44 %<
2019-yil						
daromadi 1 mlrd. so'mdan oshmaganda	4 % (AOS)	-	-	10 %	12 %	26 %<
daromadi 1 mlrd. so'mdan oshganda	12 %	2%	2 %	20 %		48 %<
2018-yil						
Xodim soni 100 nafardan oshmaganda	5% (AOS)	-	Ozod qilingan	-	15 %	20%<
Xodim soni 100 nafardan oshganda	14%	5%	Yer maydoni xususiyatidan kelib chiqadigan stavkada	-		34%<
Taklif etilgan tumanlar uchun 2022-yildan						
daromadi 1 mlrd. so'mdan oshmaganda	1 % (AOS)	1 %	Belgilangan stavkani 90 foizga kamaytirish	15 %	1%	19%<
daromadi 1 mlrd. so'mdan oshganda	15 %					33%<

2-jadval. Turistik faoliyat subyektlarini davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash samaradorligining ko'rsatkichlari²

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich	Belgilar
Budjet samaradorligi	$S_1 = \frac{C_h}{T_{dx} + T_{tdx}}$	S1 – budjet samaradorligi; Sn – turizm sohasi korxonalaridan konsolidatsiyalangan budjetga hisobot davrida olingan soliqlar summasi; Td.x. – turistik agentliklarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat xarajatlari miqdori; Tt.d.x. – turdosh tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat xarajatlari miqdori.
Institutsional samaradorlik	$S_2 = \frac{TS_s + TT_s}{T_{dx} + T_{tdx}}$	S2 – institutsional samaradorlik; TSs – hisobot davrida yangi tashkil etilgan sayyohlik agentliklari va turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni; TTs – hisobot davrida turdosh tarmoqlarning tashkil etilgan yangi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

		subyektlari soni
--	--	------------------

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi 1 mlrd. soʻmdan oshsa joylashtirish vositalaridan 15 foiz stavkada foyda soligʻi hamda oʻrnatilgan tartibda boshqa soliq toʻlovlar undiriladi (2-jadval).

Respublikamizda turizm sohasini rivojlanish tendentsiyasiga koʻra, mamlakatga kiruvchi turistlar soni 2020-yilga kelib keskin kamaygan. Birgina 2019-yilga nisbatan bu koʻrsatkich pandemiya oqibatida 22,3 foizga tushib qolgan. Turistik xizmatlar eksportidan olingan tushum hajmi 2016-2019-yillarda deyarli 3,0 martaga oshgan boʻlsa, pandemiya natijasida bu koʻrsatkich 2019-2020-yillarda 27,1 foizga pasaygan. Lekin respublikada joylashtirish vositalari soni 2020-yilda 1564 tani tashkil etib, bu koʻrsatkich 2016-yilga nisbatan 2,1 marta ortgan. Bu holat mamlakatimizda turizmni rivojlantirish boʻyicha davlat dasturlarning samarali amal qilayotganligidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda ham turizmni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shunga koʻra, oilaviy mehmon uylari soni 2020-yilda 889 taga oshgan. Oʻzbekiston YaIMda turizmning ulushi 2019-2020-yillarda 1,2 foizni tashkil etgan. Koronavirus pandemiyasi oqibatida soha inqirozli holatga kelib qoldi. Buning natijasida sohada bandlar soni 0,5 foizgacha, ichki turizm ham bunga mos ravishda 64,3 foizga pasaygan³.

Faoliyat samaradorligi koʻrsatkichlari olingan natijaning sarf qilingan xarajatlarga nisbati bilan quyidagi 2-jadvalda keltirilgan formulalarda ifodalanadi.

Shuningdek, turizm sohasida xoʻjalik yurituvchi sub'ektlar uchun aylanmadan olinadigan soliq boʻyicha davlat budjetiga soliq tushumlarini prognoz qilish metodlari ishlab chiqildiki, ularni quyidagicha izohlash mumkin. Aylanmadan olinadigan

soliq tushumlari prognozi (AOS) quyidagi formula boʻyicha hisoblanadi:

$$AOS = \sum_{i=1}^n (V_n * S * K + Q - O)(+/-)F,$$

AOS – qonunchilik hujjatlarida joriy yil boʻyicha aylanmadan olinadigan soliq tushumlarini baholash;

i, n – turizm tarmogʻi;

$$V_n = D * H$$

V_n – Prognoz qilinayotgan davr uchun soliqqa tortish bazasi;

D – Hisobot yili yakuniga kutilayotgan soliqqa tortish bazasi;

H – Tarmoqda qoʻshilgan qiymatining prognoz qilinayotgan davrdagi oʻsish koeffitsienti;

$$D = V(12/M * NI + 1)$$

V – Hisobot yilining oʻtgan davridagi amaldagi soliqqa tortish bazasi;

12 – Kalendar yili yakuniga qolgan oylar soni;

M – Hisobot yilidagi oʻtgan oylar soni;

NI – Tarmoqda qoʻshilgan qiymatining hisobot yilining qolgan davrida kutilayotgan oʻsish koeffitsienti;

S – Taklif etilgan soliq stavka;

K – Yigʻiluvchanlik darajasi, %;

Q – Soliq turi boʻyicha mavjud qarzdorlik;

O – Soliq turi boʻyicha mavjud ortiqcha toʻlov;

F – Qonunchilikdagi oʻzgarishlarni, haqiqiy tushumlarni, soliq rejimini oʻzgartirishni, shuningdek bir martalik operatsiyalarni (tushumlarni, qaytarib berishni va boshqalarni) hisobga olgan holda tushumlarning tuzatilgan summasi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan yondashuvning boshqa mualliflar tomonidan

³ Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari.

tavsiya etilgan yondashuvlardan farqli jihatlarini tanlab olingan omillarning mamlakatning o'ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi, ko'rsatkichni ishlab chiqishda turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliqqa tortishning zamonaviy tizimi va mexanizmlaridan foydalanilganligi, hududlar bo'yicha alohida omillarni qiyoslashdagi o'ziga xoslik hisoblanadi [12-14].

Munozara.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori v)bandida keltirilganidek "aholisi 300 mingdan kam bo'lgan tumanlarda: sanoat va xizmatlar sohasi yuqori sur'atlarda rivojlanib borayotgan tumanlarda — savdo, mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlarni tashkil etishga ustuvorlik berish; tog'li, tog'oldi, rekreatsion turizm salohiyati yuqori tumanlarda — avtomobil yo'llari, elektr energiyasi va ichimlik suvi ta'minoti hamda boshqa infratuzilmani yaxshilash va tayyor loyihalar asosida turizm xizmatlarini rivojlantirish" muxim masala hisoblanadi.

Shuningdek, 2022-yil 1-apreldan 2025 yil 1 yanvargacha qadar chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash turizm sohasini rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Turizm sohasi subyektlarining soliq yuki kamayishiga ijobiy ta'sir qiluvchi amaldagi samarali soliq imtiyozlari berish, aholisi 300 mingdan kam bo'lgan tumanlarda sanoat va xizmatlar sohasi

yuqori sur'atlarda rivojlanib borayotgan tumanlarda mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlarni tashkil etishga ustuvorlik berish hamda rekreatsion turizm salohiyati yuqori tumanlarda avtomobil yo'llari, infratuzilmani yaxshilash va turizm xizmatlarini rivojlantirish, mehmonxona xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash yuzasidan takliflarimiz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son qarorini ishlab chiqishda inobatga olingan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga mehmonxona va maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulki stavkalarini 90 foizga kamaytirish ham shular jumlasidandir. Bundan tashqari yangidan quriladigan ob'ektlarga nisbatan imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5-yil muddat davomida qo'llash, foyda solig'ini binolarning qiymatini 2-yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish, turizm hududlarida ro'yxatdan o'tgan, mehmonxona, turoperator va turagent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari aylanmadan olinadigan soliq stavkasini 1 foizga, egallagan yer uchastkasi bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga va yer solig'i miqdorlarini hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilash yuzasidan bergan takliflari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son qarorida tasdiqlanib amaliyotga joriy etildi. Mazkur taklif natijasida Respublikada 241 ta joylashtirish vositasi va turoperatorlarga ish joylarini

saqlab qolish uchun 16,1 mlrd so'm miqdorida foizsiz ssuda ajratilgan; turizm sohasidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish davom ettirilishi natijasida 126 ta mehmonxona va joylashtirish vositasi foydalanishga topshirilgan va xonalar soni 3 mingga ko'paygan.

Xulosa.

O'zbekistonda soliq tizimi turizmni rivojlantirish uchun raqobatbardosh muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, ammo qonunchilikning hozirgi holati qayta ko'rib chiqishni va zamonaviy bozor sharoitlariga moslashishni talab qiladi.

Soliq tartib-qoidalarining shaffof emasligi va turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun maxsus soliq imtiyozlarining yo'qligi kabi muammolar sektorning o'sish potentsialini cheklaydi.

Optimallashtirilgan soliq rejimlarini joriy etish sayyohlik oqimi va investitsion jozibadorlikni sezilarli darajada oshirishiradi.

Turizm biznesi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida amaldagi soliq siyosatini har tomonlama tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Turizm sohasida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan aniq soliq choralarini ishlab chiqish, shuningdek soliq ma'muriyatini soddalashtirishga yordam beradigan amaliyotlarni joriy etish zarur.

Turizm sohasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni samarali soliqqa tortish davlat byudjeti daromadlarini oshiradi, O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi, uning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Butunjahon sayohat va turizm kengashi va Jahon banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
2. Korzun R. M. Международный туризм//«Экономика APK: problemi i resheniya» - 2011. - 673 s.
3. Brida J. G., Cortes-Jimenez I. & Pulina M. (2014). Has the tourism-led growth hypothesis been validated? A literature review. *Current Issues in Tourism*
4. UNWTO. (2020). UNWTO World Tourism Barometer, 2008 Edition. Available at: <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284424160>
5. Shapoval G.F. История туризма: Ucheb, posobie. - M.: Ekoperspektiva, 1999;
6. Makarenko S.N., Saak A.E. Istoriya turizma: Sbornik. - Taganrog: Izd-vo TRTU, 2003. - 12 s.;
7. Saprunova V.B. Turizm: evolyusiya, struktura, marketing. - M.: «Os-89», 2014. - 160 s.;
8. Lickorish L.J. & Jenkins C.L. (2011) *An Introduction to Tourism*. New York: Routledge;
9. Jayapalan N. (2001). *An Introduction to Tourism*. New Delhi: Atlantic Publishers and Distributors.
9. Mejdunarodnye rekomendatsii po statistike turizma YUNVTO (MPCT2008). Statisticheskie dokument. Seriya M № 83, Madrid, Nyu-York, 2008.
10. Abdullaev Z.S. Turizm faoliyatini rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati. // "Iqtisod va moliya" ilmiy-amaliy jurnal, 2020y, №4(136).- B.47-54.
11. Abdullayev Z. S. Comparative Analysis of Development of Taxations System of Tourism. // Jurnal научных i prikladnykh issledovaniy. Nauchno-prakticheskiy jurnal №2 / 2020. Adres v Internet: www.gnpi.ru E-mail: gnpi.public@gmail.com ISSN 2306-9147.



12. Abdullayev Z.S. Analysis the Problem of Taxation in the Tourism Sektor in the World // Researcher 2020; 12(4):59-62.– ISSN 1553-9865 (print); ISSN 2163-8950 (online). <http://www.sciencepub.net/researcher>. 5. doi:10.7537/marsnsj120420.05.
13. Abdullayev Z.S. Taxes on the financial stability of the subjects of tourist activities // Nat Sci 2020; 18(8):54-63.– ISSN 1545-0740 (print); ISSN 2375-7167 (online). <http://www.sciencepub.net/nature>. 7. doi:10.7537/marsnsj180920.07.
14. Abdullaev Z.S. Turizm faoliyatini soliqqa tortishning iqtisodiy-huquqiy asoslari. // "Iqtisod va moliya" ilmiy-amaliy jurnal, 2021y, №2(138).- B.39-47.